# QABUL YO'L XARITASI

## 2024-2025 O'QUV YILI QABUL TARTIBI

- Dastlabki suhbatdan o'tish
- Test sinovlarini topshirish
- Hujjatlar almashinuvi va shartnomalar imzolash
- Dastlabki to'lovni amalga oshirish

## HUJJATLAR

- Talabaning tug'ilganlik haqida guvohnomasi
- Shifokor ko'rik daftarchasi yoki 086 formasi (Agar o'quvchi sog'ligida davriy yuzaga kelishi mumkin bo'lgan allergik va boshqa holatlar bo'lsa maktab psixologi va shifokori nazorati uchun ogohlantirish)
- Talabaning 3x4 o'lchamdagi fotosurati
- Ota-ona (vasiy) ning pasport nusxalari
- O'quvchining avvalgi o'qish joyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari(tabeli)
- Shartnoma

## O'QUVCHILARNI SARALASH VA IMTIXON QILISH

O'quvchilarni qabul qilish bo'yicha yakuniy qaror suhbat natijalariga, 1-sinfdan boshlab o'qish ko'nikmalari, chet tillari va matematika fanlaridan yozma testlar natijalariga asoslanadi. O'rta va yuqori sinf o'quvchilar uchun akademik hisobot, o'zlashtirish va baholar tabeli asos bo'ladi. Intellektual va ilmiy ko'nikmalarni baholash, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ilmiy bilimlarning murakkabligini hisobga oladigan kompleks yondashuvni hisobga olgan holda bu bosqich o'quvchilaridan chet tili, matematika va tanqidiy fikrlash, ma'lumotlarni baholash va dalillarga asoslangan holda to'g'ri xulosa chiqarishga undaydigan savollar yoki topshiriqlarni o'z ichiga oladigan maxsus sinov imtihonlaridan o'tkaziladi. O'quvchining yosh guruhini aniqlash oldingi tugallangan sinf / yosh guruhiga asoslanadi.

## QABUL KOMISSIYA A'ZOLARI

- Direktor
- Akademik direktor
- O'quv-tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
- Qabul bo'limi rahbari
- Ta'lim sifatini nazorat qiluvchi fan bo'lim rahbarlari
- Moliya bo'limi rahbari
- Psixolog

AVVAL BOSHQA MAKTABDA O'QISHDAN CHETLATILGAN O'QUVCHILARNI QABUL QILISHNI RAD ETISH HUQUQINI MAKTAB O'Z IXTIYORIDA QOLDIRADI!

Farzandini "DATA" xususiy maktabiga kiritishni maqsad qilgan ota-onalar yoki vasiylar maktabga qabul qilish siyosati, yoshga oid mezonlari va sinfga joylashtirish bo'yicha yo'riqnomalarni, o'qishga qabul qilish talablarini tushunishlari va unga amal qilishlari shart.